ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA QUR’ONI KARIM OYATLARINING QO‘LLANISHI

O‘lmasova Shirin Shavkat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida Qur’oni Karim oyatlarini qo‘llash mahorati va mazkur oyatlarning asarda bajargan vazifasi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Badiiy adabiyot, tarbiyaviy-axloqiy vazifa, hedonistik vazifa, Qur’oni Karim, payg‘ambarlar qissalari, din nizomi, ruhiyat, xotirjam nafs, an-nafsul ammoratul bissu’i, yomonlikka amr qiluvchi nafs.

Abstract: This article explores Isajon Sulton's artistic skill in employing verses from the Holy Quran in his novel "Alisher Navoi" and analyzes the functional roles these verses perform within the work.

Keywords: Belles-lettres (or Fiction), educational-ethical function, hedonistic function, Holy Quran, stories of the prophets, religious order, mentality (or psyche), tranquil soul (nafs al-mutma’inna), an-nafs al-ammarat-us-su’, soul commanding evil.

Kirish

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani ko‘plab e’tiroflarga sabab bo‘ldi. Buning sababi, asarning siyosiy mafkura aralashmagan, senzuradan holi, hatto badiiy to‘qimalarda ham sof Navoiy shaxsini ifodalashga harakat qilinganligidadir. Zero, o‘tgan asrda yaratilgan Navoiy haqidagi asarlar ham garchi o‘zbek adabiyotida katta yutuq, buyuk mutafakkirga nisbatan e’tirof bo‘lgan esa-da, asar yaratilgan muhitdan kelib chiqib ularda davr mafkurasi ham sezilib turardi. Albatta, adiblarimiz turli tazyiqlarga uchragan vaqtda Alisher Navoiy haqida roman yaratishning o‘zi bir jasorat, biroq Navoiy haqidagi xulosalar izlangan sari o‘zining yangi qirralarini ochaveradi, qancha ilmiy ishlar olib borilsa, asarlar yaratilsa har birida shunchadan yangilik kashf etilaveradi. Bu esa ulug‘ shoir shaxsi va ijodining naqadar yuksakligidan darak beradi.

Asosiy qism

Isajon Sulton muallifligida yozilgan “Alisher Navoiy” romani ham adabiyotimizga ana shunday bir yangilik bo‘lib kirib keldi. Eng avvalo, har qanday mafkuradan holi yaratilgan roman butun Navoiy shaxsi, u ijod etgan adabiy muhit, shoirning kechinmalari, ruhiyatini ifodalashda muqaddimaning o‘zidayoq katta qadam tashlandi. Hamd, madh bilan boshlanuvchi muqaddimalar o‘quvchini asar ruhiyati tomon yetaklaydi. O‘tgan asrlarda ba’zi bir cheklovlar asosida Navoiy shaxsi va ijodini anglatishi uchun diniy manbalarga murojaat qilinmagan bo‘lsa, Isajon Sulton o‘z romanida mazkur jarayonni boshlab berdi. Navoiyni anglash uchun Qur’oni Karimdan, Hadisi sharifdan, tasavvuf ilmidan xabardor bo‘lish lozimligini anglagan yozuvchi bu borada izlanishlar qilib, o‘z asarini Qur’oni Karim oyatlari, payg‘ambarlar qissalaridan kichik ma’lumotlar keltirib boyitdi. Bu esa kitobxonning Navoiy shaxsi va ijodini anglashiga juda katta yordam beradi.

“Badiiy adabiyot tushunilishidan oldin tuyilishi kerak”,[1]degan edi taniqli adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev o‘zining “Badiiy tahlil asoslari” kitobida. Darhaqiqat, yozuvchi o‘zi yaratgan asar ichida yashamas va kitobxonni ham yashata olmas ekan, ushbu asar kitobxon

[1] Qozoqboy Yo‘ldoshev, Muhayyo Yo‘ldosh. “Badiiy tahlil asoslari”. Toshkent -2016

qalbidan o‘rin egallab, badiiy asar darajasiga chiqa olmaydi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar haqidagi asarlar yuqoridagi xususiyatga ega bo‘lmas ekan, ularning oddiy bir tarixiy ma‘lumot, ilmiy matndan farqi qolmaydi. Zero badiiy adabiyot kitobxon oldida o‘zining zavqlantiruvchi-hedonistik, tarbiyaviy-axloqiy vazifalarini bajara olishi kerak.[2] Bunday talablarga javob beruvchi asar yaratish esa yozuvchidan ilohiy iste‘dod bilan birga tinimsiz mehnat, izlanishlarni ham talab etadi.

Yozuvchi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani ham chin ma’noda yuqorida aytib o‘tganimizdek tinimsiz mehnat va izlanishlarning eng yetuk mahsulidir. Ushbu romanga qadar ham ko‘plab adiblarimiz buyuk mutafakkir hayotini ifodalovchi asarlar yaratishgan bo‘lsalarda, ushbu asarlarda ular yaratilgan vaqtdagi senzurani inobatga olib aytishimiz mumkinki, siyosiy mafkura ham oz bo‘lsada o‘z ta'sirini ko‘rsatganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Isajon Sulton o‘z romanini ana shunday mafkuralardan holi, haqiqiy Navoiy shaxsini o‘quvchi tasavvurida gavdalantirib beradigan, kitobxonni ham butun bir asar ruhiyatiga olib kiradigan darajada ta‘sirli bir san‘at asari darajasida yaratishi uchun qanchalar mehnat qilganini asar mutolaasida guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Yozuvchining asarni “Xazoyin ul-maoniy”dagi singari to‘rt qismga bo‘lishi, har bir qismlar muqaddimasi hamd, madh singari qismlar bilan boshlanishining o‘zi barcha uchun bugungi zamonaviy adabiyotimizda yangilik bo‘ldi va ushbu xususida ko‘plab ilmiy maqolalar ham chop etildi. Biroq shu bilan asar haqidagi xulosalar va izlanishlar to‘xtab qolgani yo‘q. Zero “Alisher Navoiy” romani Alisher Navoiy asarlarining o‘zi singari har izlanishda yangi qirralarini namoyon etadigan yirik bir asar bo‘lib tug‘ildi.

Navoiyning bolalik kezlaridan to Haq rahmatiga qovushguniga qadar bo‘lgan vaqtni aks ettirgan ushbu yirik asar har qanday kitobxonni o‘zining ichki olamiga olib kiradi desak mubolag'a bo‘lmaydi. Zero, asar boshidanoq rahmdil, pokdil, Allohning har yaratig‘iga hayrat va muhabbat ko‘zi bilan qaraydigan bolakayning o'ziyoq kitobxon qalbida Navoiy shaxsiga qiziqish uyg'otadi. Uning o'tkir zehnini ifodalash, o‘quvchida aniqroq taassurot uyg'otish uchun esa yozuvchi Qur’oni Karim oyatlariga, payg‘ambarlar qissalari va hadisi sharifga murojaat qiladi. Xususan, bola Alisherning Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuvini tasvirlar ekan tarixchining oldiga borishga jur'at qilolgan, odobli bolagina emas, o'tkir zehn va tafakkurda bolalik chog‘idayoq hammani lol qoldirgan Navoiy obrazi gavdalantiriladi. Tarixchining Abu Lahab haqidagi savoliga “chunki uning hukmi qiyomatga qolmasdanoq chiqarib bo'lingan” degan mazmundagi javobi orqali Isajon Sulton Navoiyning bolalik vaqtidayoq yuksak zakovat sohibi bo‘lganligini ko‘rsatib beradi. Buning uchun esa yozuvchi o‘zi ham izlanib, Masad surasi oyatlariga tayanib mazkur jumlalarni yozganini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, yozuvchi Qur’oni Karim oyatlariga murojaat qilganligi uning chin ma'noda Navoiy shaxsini anglab turib, unga muhabbat qo‘ygan, uni his qilgan holda asar yaratganini anglatadi. Zero, Qur’oni Karim, hadislar ilmini bilmay turib, tasavvuf ilmidan bexabar bo‘lib, shunchaki bir mutolaa bilan Navoiy ijodi haqida ham, uning yuksak shaxsi xususida ham hukm chiqarib bo‘lmaydi. Zero, shoir ijodining aksariyati dunyoning o'tkinchi muhabbatini emas, dunyoning Yaratguvchisiga muhabbatni aks ettiradi. Xususan "Layli va Majnun" dostonida ham bir qarashda yor vaslini ko‘rgach hushini yo‘qotgan oshiq shunchaki bir inson muhabbatini ko‘rsatib bermaydi, aksincha, Qur’oni Karimda keltirilgan Muso alayhissalom qissalariga ham ishorat qiladi. Qur’oni Karimning A’rof surasi 143-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

[2] Qozoqboy Yo‘ldoshev, Muhayyo Yo‘ldosh. “Badiiy tahlil asoslari”. Toshkent -2016

Muso Biz belgilagan vaqtda (Tur tog‘iga) kelgach, u bilan Rabbi bevosita gaplashdi. Muso:

“Rabbim! (O‘zingni) menga ko‘rsatgin, Senga bir nazar qilay!” - dedi. (Alloh): “Meni ko‘ra olmaysan. Lekin (ana u) tog‘ga (bir) boq! Agar Men unga bir jilva qilganimda (toqat qilib) o‘z o‘rnida tura olsa, sen ham meni ko‘rasan”, - dedi. Rabbi tog‘ga tajalliy (kichik bir ko‘rinish) qilgan edi, uni maydalab tashladi. Muso (ham ta’sirlanib) behush holda yiqildi. Hushiga kelgach, dedi: “Senga tasbeh ayturman, Senga tavba qildim va men mo‘minlarning birinchisi (peshvosi)durman”.

Tafakkur ko‘zi bilan qaragan insonga Layli va Majnunda ham shunday ishorat bordek tuyuladi va o‘quvchi Navoiy dahosini anglay boshlaydi.

Isajon Sulton ham aynan shu jihatlarini anglagan holda Navoiy shaxsini tasvirlashga harakat qildi va ko‘plab diniy manbalarga murojaat qildi.

Husayn Mirzo bilan suhbatlashayotgan besh-olti yoshlardagi Alisherning "yo‘q, men fikr maydonida Abobil qushi bo'lib jangga kirdim" deya hozirjavoblik qilgani nafaqat, bola Alisherning payg'ambarimiz Muhammad solallohu alayhi vasallam qissalari xususida bilimga ega ekanligini, balki yozuvchi ham aynan shu bilimlarni o‘zlashtirib Navoiy shaxsini haqqoniy ifodalash uchun anchagina mehnat qilganligini ko'rsatadi. Muallif ulug‘ mutafakkir shaxsini shu qadar ulug‘laydiki, hatto uning tug'ilishini ham ilohiy bir voqeaga qiyoslaydi. Shayx Sudur tomonidan:

“Bu o‘g‘lon ruhlar olamidan yorug‘ dunyoga ramazonning o‘n yettinchi kuni kelibdi. Parvardigori olam uning jonini ayni shu mahalda yer yuziga yuboribdi, hikmatiga nima ham deya olardingiz? Olamning so‘nggi payg‘ambariga vahiy va Qur’on shu kuni tushirilgan bo‘lib, Badr g‘alabasi ham shu kuni ro‘y bergan. Shohimardonning aziz boshiga xuddi shu kuni qilich solinib, shahodatga yetishgan edi...” [3]jumlalarining aytilishi ham Navoiy shaxsini yanada ulug‘lab ilohiylashtirib ko‘rsata olgan. Qolaversa, Shayhning “Unga go‘daklik chog‘idayoq ilm va hikmat ato etdik” oyatini o‘qishi go‘yo Navoiy shaxsi ham shunday mukammal yaratilganiga ishora sifatida keltirilgan edi.

Romanning “G‘aroyib us-sig‘ar” qismiga ulug‘ shoirning “Qizil, sorig‘, yashil” g‘azalini kiritar ekan, g‘azalda Hud alayhissalom zamonidagi bulut qissasiga ishorat qilinganligi haqida ham Isajon Sulton muallif tilidan ma‘lumot berib o‘tdi. Ahqof surasining 24-oyatida yozuvchi bergan ma’lumot o‘z isbotini topadi.

Asarning “Navodir ush-shabob” bobida esa yaqinlaridan ayrilgan, g‘am-g‘ussa ichida qolgan Navoiyni buyuk maqsadlarni amalga oshirishga chorlovchi chaqiriq sifatida ham Qur’oni Karim oyatlari qo'llanilgan. Tavakkal qilib Lavhni ochgan Alisher quyidagi oyatlarga duch keladi:

“Ey o‘ranib olgan zot, turing va odamlarni ogohlantiring va Robbingizni ulug‘lang!”

“Sening ko‘ksingni keng qilib qo‘ymadikmi? Va sening yukingni yengillatmadikmi? U sening yelkangni bosib turgan edi. Va sening zikringni yuqori ko‘tardik. Bas, albatta, bir qiyinchilik bilan osonlik bordir. Albatta, bir qiyinchilik bilan osonlik bordir. Forig‘ bo‘lsang, ibodatiga uringin. Va faqat Robbingga rag‘bat qilgin!”

Muddasir surasining 1-3-oyatlari, Sharh surasining barcha oyatlarini yozuvchi Navoiy duch kelgan muammoga Alloh tomonidan kelgan yechim sifatida ko'rsatadi. Qolaversa, mazkur

[3] Isajon Sulton. “Alisher Navoiy” roman. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2022. B.50

lavhaning berilishi orqali qanchalik qiyinchilikka duch kelmasin, hamisha chinakam ishqi bo‘lmish - Allohga bo‘lgan ishqi, mustahkam iymoni shoir qalbini tark etmagani ham aks ettiriladi.

Romanning yana bir qismida Navoiyning Bektosh bobo bilan suhbati keltirilarkan, Bektosh bobono yalpizni yulmaslikka undagan shoir tilidan muallif Ra’d surasi oyatlarini keltiradi:

“Osmonlardagi va yerdagi bor narsalar Allohga tasbeh ayturlar. Uning hamdi ila tasbeh aytmagan hech bir narsa yo‘q. Ra’d, ya’ni momaqaldiroq ham uning hamdi ila tasbeh aytadir, deyilganini eshitmaganmisiz?”

Mazkur oyatlarni keltirish asnosida yozuvchi Navoiyning olamning barcha yaratig‘iga tafakkur va shafqat ko‘zi bilan boquvchi, halim tabiatli inson ekanligini ko‘rsatib beradi. Qolaversa, kitobxon mazkur lavhadan ulug‘ shoirni har doim Alloh buyurgan yo‘riqlardan chetga chiqmay, Rabbisining oyatlarini qalbiga jo aylagan mustahkam iymon sohibi sifatida ham kashf etadi.

Navoiyning keksalik vaqtlarini aks ettirarkan, shoir ijodining tug‘ilishi, atrofda bo'layotgan turli voqea hodisalarni ko‘rsatib berish bilan birga yozuvchi mutafakkir kechinmalarini aks ettirish yo‘lida ham Qur’oni Karim oyatlariga murojaat qiladi. Zero, Fajr surasining 27-28-oyatlarini keltirish orqali ruhan poklikka erishayotgan ulug‘ shoir timsolini gavdalantirgan. Chunonchi, xotirjam nafsga yetishmoq komillikka erishayotgan, o‘zini mudom pok tutgan insonlarga xos xususiyatdir. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari o‘zining “Ruhiy tarbiya” kitobida nafsning sifatlarini uch turga ajratadi va ular qatoridan o‘rin olgan, yuqoridagi oyatlarda zikr etilgan xotirjam nafsga shunday ta’rif beradi:

“Bunday nafs shahvatlar ila kurashda g‘olib bo‘lib, sokinlik kasb qilgan nafsdir”.[4]

Ushbu ta’rifdan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, mazkur oyatlar Navoiyning ham o‘z

“an-nafsul ammoratul bissu’i”, ya’ni yomonlikka amr qiluvchi nafsi ila kurashda g‘olib kelganligini anglatadi. Fajr surasining ushbu oyatlarini ikki o'rinda: ulug‘ shoirning ulug‘ bir asari dunyoga kelar chog‘ida hamda ushbu yuksak qalb egasi mangulik diyori sari qadam qo‘yar chog‘ida qo'llanilgan va bevosita o‘quvchi ruhiyatini asar ruhiyati bilan chambarchas qilib bog'lab qo'ygan.

Xulosa

Asar voqealarida ham ko'rishimiz mumkinki, xalq Navoiyni “Nizomiddin” ya‘ni “din nizomi” deb ham ulug‘laydi. Buning boisi esa, yuqoridagi fikrlarda keltirganimizdek, ulug‘ avliyoning har qanday ishni bajarishda shariat qoidalarini mahkam tutganligi, o‘zining dono maslahatlari, yuksak saviyali asarlari, qolaversa eng avvalo amali orqali xalqni va hukmdorlarni ham ayni shunga undaganligidir. Ayni shu fazilatlarni kitobxonga ko‘rsatib berish uchun ham asar ushbu xususiyatlarga monand ruhda yozilgan. Yozuvchi asarda keltirilgan o‘xshatishlarda ham Qur’oni Karimda nomi keltirilgan shaxslar, payg‘ambarlar qissalarida ishtirok etgan qahramonlar nomlarida tayangan. (Zakovat Isosi, jasad Isosi, abobil qushi singari o‘xshatishlar).

Fikrlarimiz yakunida shuni aytishimiz mumkinki, adabiyotimizda yangilik sifatida romanda Qur’oni Karim oyatlarining qo'llanilishi nafaqat o‘quvchini badiiy asar ruhiyatiga olib kira oladi,

[4] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Ruhiy tarbiya”. “HILOL-NASHR”nashriyoti”, 2022. B.6

balki, uni mutolaa qilgan kitobxonga Navoiy ijodini anglashda ham katta yordam beradi. Zero yuqori saviyadagi asar o'laroq ulug‘ Navoiy ijodi bir qarashda, o'qishda tushuniladigan oddiygina ijod namunasi emas. Uni anglash uchun avvalo, Navoiy shaxsini anglash kerak. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani esa o‘ylaymizki, ayni shu vazifani o‘z oldiga maqsad qildi va buning uddasidan ham chiqa oldi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev aytganidek, roman faqatgina tushuniladigan emas, tuyiladigan, his qilinadigan, o‘quvchini o‘z olamiga olib kira oladigan bir xazina bo‘lib adabiyotimizda iz qoldira oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Qur’oni Karim ma’nolar tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur talqinida.

2.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Ruhiy tarbiya”. “HILOL-NASHR”nashriyoti”.

3.Isajon Sulton. “Alisher Navoiy” roman. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa ijodiy uyi”.

4.Qozoqboy Yo‘ldoshev, Muhayyo Yo‘ldosh. “Badiiy tahlil asoslari”. Toshkent -2016.